



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 188 sahifa,  
5-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari .....	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni .....	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari .....	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish .....	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari .....	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida .....	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli .....	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari .....	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli .....	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari .....	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni .....	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish .....	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi .....	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar .....	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari .....	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии .....	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды .....	153
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей .....	157
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	
Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Enhancing Critical Thinking and Academic Communication Skills .....	164
<i>Allamuratov Gofur Ashurovich</i>	
Talabalarning bolalardagi ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.....	169
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	
Jamoaviy va yakkakurashchi professional sportchilar motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik farqlari .....	172
<i>Qaimova Gulmira Uchqun qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari .....	176
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Katta guruh tarbiyalanuvchilarida steam kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va yoshga oid psixologik xususiyatlari.....	179
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari.....	183
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	

# JAMOAVIY VA YAKKAKURASHCHI PROFESSIONAL SPORTCHILAR MOTIVATSIYASINING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK FARQLARI

Qaimova Gulmira Uchqun qizi

O'zbekiston Davlat sport akademiyasi huzuridagi  
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash  
va malakasini oshirish instituti 1-kurs tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamoaviy va yakkakurash sportchilar motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Motivatsiyaning tarkibiy komponentlari, yosh, jins, sport turi va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, trener-sportchi munosabatlari va ichki hamda tashqi motivlarning sport natijalariga ta'siri ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sport motivatsiyasi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, jamoaviy sport, yakkakurash, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, trener-sportchi munosabatlari, sport psixologiyasi.

**Abstract:** This article analyzes the socio-psychological characteristics of motivation in team and individual athletes based on scientific literature. The structure of motivation, its relation to age, gender, type of sport, and social environment are examined. Special attention is given to coach-athlete interaction and the impact of intrinsic and extrinsic motivation on sports performance.

**Key words:** sports motivation, socio-psychological characteristics, team sports, individual sports, intrinsic motivation, extrinsic motivation, coach-athlete relationship, sport psychology.

**Аннотация:** В статье анализируются социально-психологические особенности мотивации спортсменов командных и индивидуальных видов спорта на основе научной литературы. Рассматриваются структура мотивации, её зависимость от возраста, пола, вида спорта и социальной среды. Особое внимание уделяется взаимодействию тренера и спортсмена, а также влиянию внутренней и внешней мотивации на спортивные результаты.

**Ключевые слова:** мотивация спортсменов, социально-психологические особенности, командные виды спорта, индивидуальные виды спорта, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, отношения тренера и спортсмена, спортивная психология.

## KIRISH

Zamonaviy sport psixologiyasida sportchilarning motivatsiyasi ularning sport faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Motivatsiya shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadlari va emotsional holatlari bilan bog'liq murakkab psixologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, professional sportda yuqori natijalarga erishish motivatsion jarayonlarning samarali tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Jamoaviy va yakkakurash sport turlarida motivatsiya mazmuni va yo'nalishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jamoaviy sportchilarda ijtimoiy omillar va muloqot ustun bo'lsa, yakkakurash sportchilarida shaxsiy rivojlanish va ichki motivatsiya kuchliroq namoyon bo'ladi. Shu sababli, sport motivatsiyasini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sportchilarning motivatsiyasi muammosi zamonaviy sport psixologiyasida markaziy o'rin egallab, u shaxs faoliyatining ichki mexanizmlarini ochib beruvchi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar motivatsiyaning ko'p komponentli, dinamik va ijtimoiy jihatdan shartlangan tizim ekanligini ko'rsatadi.

S.A. Kuznetsov tadqiqotlari motivatsiyaning tarixiy va ijtimoiy ildizlarini ochib beradi. Muallif individual sportchilar shaxsiy rivojlanish va ichki qoniqish motivlariga ko'proq ega ekanligini, jamoaviy sportchilarda esa jamoaviy natijaga yo'naltirilganlik ustunligini aniqlagan. Shuningdek, ijtimoiy ma'qullash motivatsiyasi va kollektivizm o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan.<sup>[1]</sup>



V.B. Antipin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sportchilarning ehtiyojlari va motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sportchilarda ehtiyojlarning qondirilishi darajasi oshgani sari motivatsiya darajasi ham ortadi. Ayniqsa, yuqori malakali sportchilarda ehtiyojlarning ko'proq qondirilganligi kuzatiladi.<sup>[2]</sup>

Ayed Hafedh tadqiqotlari sportchilarda motivatsiyani shakllantirishning samarali psixologik-pedagogik usullarini aniqlashga qaratilgan. Ayniqsa, 16–17 yoshli futbolchilar bilan olib borilgan eksperimental ishlar natijasida psixologik-pedagogik konsultatsiya metodining yuqori samaradorligi aniqlangan. Ushbu metod ichki va tashqi motivatsion omillarni kompleks tarzda uyg'unlashtirib, sportchilarda muvaffaqiyatga intilish darajasini oshiradi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishni kamaytiradi.<sup>[3]</sup>

O.A. Svilina tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sportchilarning motivatsiyasi yosh va sport tajribasiga qarab dinamik tarzda o'zgarishini ko'rsatadi. Muallif motivatsiyani uch asosiy komponent – ego-orientatsiya, vazifa-orientatsiya va moddiy motivatsiya asosida tahlil qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yosh sportchilarda ichki motivatsiya va vazifa-orientatsiya ustun bo'lsa, o'rta yosh davrida ego-orientatsiya kuchayadi, professional bosqichda esa moddiy motivatsiya yetakchi o'rin egallaydi. Ushbu natijalar motivatsiyaning rivojlanish bosqichlariga ega ekanligini tasdiqlaydi.<sup>[4]</sup>

M.A. Kuzmin sport motivatsiyasini sport turiga qarab differensial yondashuv asosida o'rganib, turli sport turlarida motivatsion tuzilma farqlanishini aniqlagan. Xususan, yakkakurash sportchilarida o'zini rivojlantirish va maqsadga yo'naltirilganlik motivlari ustun bo'lsa, jamoaviy sportchilarda muloqot va ijtimoiy motivlar kuchliroq namoyon bo'ladi. Bu esa sport turining motivatsion tizimga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.<sup>[5]</sup>

Shumilin A.P. tadqiqotlarida sportchilarning malaka darajasi, musobaqa sharoiti va motivatsiya tuzilmasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan. Yuqori malakali sportchilarda motivatsiya komponentlari va natijadorlik o'rtasida kuchli ijobiy aloqadorlik mavjudligi isbotlangan.<sup>[6]</sup>

Kargapolev A.V. tadqiqotlari sportchilarning emotsional holati, xususan, xavotir darajasining sport natijalariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Natijalarga ko'ra, yuqori xavotir sport natijalarini pasaytiradi, past xavotir esa yuqori natijadorlik bilan bog'liq.<sup>[7]</sup>

Ganolin A.S. ekstremal sportchilarda motivatsiyaning gender xususiyatlarini matematik modellashtirish asosida o'rgangan. Tadqiqot natijalari ayollar va erkaklarda motivatsiya tuzilmasi sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Ayollarda ichki motivlar ustun bo'lsa, erkaklarda tashqi va ijtimoiy motivlar kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, gender stereotiplari sportchilarning motivatsiyasi va o'z-o'zini baholashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bu esa sport motivatsiyasini o'rganishda gender omilini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.<sup>[8]</sup>

Ukolov A.V. tomonidan ishlab chiqilgan metodika sport motivatsiyasini shakllantirishda kompleks yondashuv zarurligini asoslaydi. Ushbu metodika bosqichma-bosqich tashkil etilgan bo'lib, sportchilarda motivatsiya darajasini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.<sup>[9]</sup>

O.E. Hayitovning ilmiy qarashlarida motivatsiya shaxsning ichki faoliyat boshqaruv tizimi sifatida talqin etilib, unda qiziqish, mayl, ustanovka va emotsional holatlar yetakchi komponentlar sifatida ko'riladi. Muallifning fikricha, aynan ushbu psixologik omillar shaxsning hayot strategiyasini belgilaydi va faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Bu yondashuv sport faoliyatiga tatbiq etilganda, sportchining motivatsiyasi uning sportdagi muvaffaqiyatini oldindan belgilovchi ichki determinant sifatida namoyon bo'ladi.<sup>[10]</sup>

J.M. Ishtayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sportchilarning motivatsion holatini o'lchash va baholash metodologiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Muallif V.F. Sopovning motivatsion holat shkalasi asosida sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash va shu asosda mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish mumkinligini ilmiy asoslab beradi. Ushbu yondashuv sportchilarning psixologik tayyorgarligini individuallashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.<sup>[11]</sup>

Sport motivatsiyasining ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi Usmanova A.A. tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. Muallif sportchi va trener o'rtasidagi munosabatlar sifatini motivatsiyaning asosiy determinantlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Trenerning empatik yondashuvi, kommunikativ madaniyati va psixologik qo'llab-quvvatlashi sportchining ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu yondashuv zamonaviy psixologiyada keng e'tirof etilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) bilan hamohang bo'lib, unda motivatsiya shaxsning avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy bog'liqlik ehtiyojlari qondirilishi bilan izohlanadi.<sup>[12]</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola nazariy yo'nalishda bo'lib, unda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish
- qiyosiy tahlil
- umumlashtirish
- tizimli yondashuv

Tadqiqot metodologiyasi faoliyat yondashuvi va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillariga asoslandi. Motivatsiya sport faoliyatining ajralmas qismi sifatida, shaxs va faoliyat birligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqildi.

Shuningdek, turli mualliflar tomonidan qo'llanilgan psixodiagnostik metodikalar (motivatsion shkalalar, o'z-o'zini baholash testlari) natijalari ikkilamchi tahlil qilindi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sport motivatsiyasi ko'p komponentli va dinamik tizim hisoblanadi. U quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

#### 1. Sport turiga bog'liqlik

1. Yakkakurash sportchilarda ichki motivatsiya, o'zini rivojlantirish ustun
2. Jamoaviy sportchilarda ijtimoiy va kommunikativ motivlar kuchli

#### 2. Yosh xususiyatlari

1. Yosh sportchilarda ichki motivatsiya ustun
2. Katta yoshda tashqi va moddiy motivlar kuchayadi

#### 3. Trener omili

1. Qo'llab-quvvatlovchi muhit motivatsiyani oshiradi
2. Salbiy munosabat motivatsiyani pasaytiradi

#### 4. Emotsional holat

1. Past xavotir yuqori natijadorlik
2. Yuqori xavotir muvaffaqiyatning pasayishi

#### 5. Gender xususiyatlari

1. Ayollarda ichki motivatsiya, erkaklarda esa tashqi motivatsiya ustun
2. Shuningdek, motivatsiya va sport natijalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari sport motivatsiyasi murakkab ijtimoiy-psixologik tizim ekanligini ko'rsatdi. Jamoaviy va yakkakurash sportchilar motivatsiyasi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud bo'lib, ular sport faoliyatini tashkil etishda hisobga olinishi zarur.

#### Xulosa:

Motivatsiya sport natijalarining asosiy omilidir, sport turi motivatsiya tuzilmasini belgilaydi, trener-sportchi munosabatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega

#### Takliflar:

1. Sportchilarga individual psixologik yondashuvni joriy etish
2. Trenerlar uchun psixologik tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish
3. Motivatsiyani oshirishga qaratilgan treninglarni keng qo'llash
4. Sportchilarning yosh va jins xususiyatlarini hisobga olish
5. Sport muassasalarida psixologik xizmatni kuchaytirish

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. С.А. Кузнецов. Особенности мотивации спортсменов командных и индивидуальных видов спорта Социальная психология и общество. № 4/2013
2. Антипин Виталий Борисович. Формирование спортивной мотивации у боксеров на этапе начальной спортивной специализации посредством удовлетворения их потребностей. кандидат педагогических наук. .2007 <https://www.dissercat.com/content/formirovanie-sportivnoi-motivatsii-u-bokserov-na-etape-nachalnoi-sportivnoi-spetsial-izatsii->



3. Айд Хамед. Психолого-педагогические методы формирования мотивации достижений у тунисских футболистов 16 – 17 лет .2017 <https://www.dissercat.com/content/psikhologo-pedagogicheskie-metody-formirovaniya-motivatsii-dostizhenii-u-tunisskikh-futbolis>.
4. Свилина Ольга Алексеевна. Динамика мотивации достижения спортсменов индивидуальных видов спорта. 2022 <https://www.dissercat.com/content/dinamika-motivatsii-dostizheniya-sportsmenov-individualnykh-vidov-sporta>
5. Максим Александрович Кузьмин. Мотивация спортивной деятельности в различных видах спорта. Научно-теоретический журнал "Ученые записки", № 2 (84) – 2012 год.
6. Шумилин Александр Петрович Формирование мотивации результативности соревновательной деятельности юных дзюдоистов. кандидат педагогических наук. 2003. <https://www.dissercat.com/content/formirovanie-motivatsii-rezultativnosti-sorevnovatelnoi-deyatelnosti-yunyx-dzyudoistov>.
7. Каргапольцев Алексей Васильевич. Обеспечение готовности единоборцев к соревнованиям с учетом уровня их тревожности. 2018. <https://www.dissercat.com/content/obespechenie-gotovnosti-edinobortsev-k-sorevnovaniyam-s-uchetom-urovnya-ikh-trevozhnosti>
8. Ганоль Андрей Сергеевич. Гендерные особенности и структура мотивации выбора экстремальных видов спорта. 2011. <https://www.dissercat.com/content/gendernye-osobennosti-i-struktura-motivatsii-vybora-ekstremalnykh-vidov-sporta>.
9. Уколов Алексей Валерьевич. Интегративная методика формирования мотивации занятия спортом учащихся младших классов в процессе физического воспитания в школе.
10. О.Е.Найитов. Sport faoliyati psixologiyasi. Darslik. "Umid design" T-2021
11. J.M. Ishtayev Sportchilarning motivatsion holati darajasini o'lchash usuli. O'zDJTSU Ilmiy axborotnomasi. 80-83-betlar.
12. Usmanova A.A. Sport psixologiyasi. O'quv – uslubiy qo'llanma. T- 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.